XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2023 - yil 14 - fevral VI-55-38-8-115-K/23 Muzrabot tuman hokimligi

Muzrabot tumani byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini maqsadli ishlatilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi 813-son Qonunining 8-moddasida tuman byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini tuman byudjetining 2023-yilgi byudjet parametrlarida ko‘zda tutilmagan xarajatlarga, jumladan, birinchi navbatdagi zarur yo‘nalishlarga ajratilishini ta’minlash maqsadida tuman Moliya bo‘limi mudiri I.Kushakovning hisobotini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi 813-son Qonunining 8-moddasiga muvofiq mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi 813-son Qonunining 8-moddasiga muvofiq tuman byudejetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini tuman byudjetining 2023-yilgi byudjet parametrlarida ko‘zda tutilmagan xarajatlarga, jumladan, birinchi navbatdagi zarur yo‘nalishlarga ajratilishini ta’minlash maqsadida tuman Moliya bo‘limi mudiri

I.Kushakovning hisobotiga asosan hamda tumandagi mutasaddi tashkilotlarning tuman byudjetining **504,1 million** so‘m qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman byudjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilsin:

- tumandagi “Gulobod” mahalla fuqarolar yig‘ini binosini ta’mirlash xarajatlari uchun **150,0 million so‘m;**

- tuman hokimligi balansida bo‘lgan avtomashinalarga ehtiyot qismlar olish xarajatlari uchun **20,0 million so‘m;**

- ko‘zi ojizlar jamiyati tuman bo‘limiga o‘tkazish xarajatlari uchun **5,0 million so‘m;**

- tumandagi “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga **23,0 million so‘m,** “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga **76,0 million so‘m,** “Ayollar daftari” jamg‘armasiga **76,0 million so‘m,** jami **175,0 million so‘m;**

- xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining 2022-yil 20-iyundagi VI-44-103-8-115-K/22-son qaroriga asosan Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasi raisining o‘rinbosari, xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi kotibiyati mudirini **rag‘batlantirish** uchun **2,0 million so‘m;**

- tumanda jamoatchilik fikriga asosan (“Open budget” tizimi 30%) tuman mahalliy byudjeti rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismidan sarflanadigan mablag‘lar uchun **152,1 million so‘m** ajratilsin.

Tuman Moliya bo‘limi mudiri I.Kushakov tuman byudjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borsin.

4. Tuman byudjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. “Muzrabot” gazetasi tahririyati (A.Yo‘ldashev)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish,

turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi L.Musayev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **T.Tangirov**